

---

---

**BIRINCHI KITOBIM**

---

---

**Elyor MUROD**

# **TIRIKLIK QO'SHIG'I**



**She'rlar**

**Cho'lpón nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2017**

 UO'K 821.512.133-1  
KBK 84(50')7  
M 89

Mas'ul muharrir  
**Nodir JONUZOQ**

**Murodov, Elyor**  
M 89 Tiriklik qo'shig'i [matn]: she'rilar/E. Murodov. – T.: Cho'Ipon nomidagi NMIU, 2017.  
– 32 b.  
ISBN 978-9943-05-970-2

Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan «**Iste'dod maktabi**» Respublika yosh ijodkorlari seminarida nashrga tavsiya qilinib, «**Ijod**» jamoat fondi tomonidan moliyalashtiligan.

**UO'K 821.512.133-1**  
**KBK 84(50')7**

ISBN 978-9943-05-970-2

 © E. Murodov, 2017  
© Cho'Ipon nomidagi NMIU, 2017



## YODIMDA

*Momolarim sochlarni qirqta o'rib o'tgan yer,  
Bobolarim necha avlod suyak surib o'tgan yer.  
Halima Xudoyberdiyeva*

Yomg'ir yuvgan qirlarimda lolalarim

o'sgan yer,

Moychechakli tuproqlarda dalalarim o'sgan yer.  
Momolarim urchug'iday chir aylanar bu dunyo,  
Bobolarim duo qilib balolarni to'sgan yer.

Xayr yog'ar, oydin nurli ko'chalarim yodimda,  
O'lan aytar, qiz bo'lguvchi chechalarim yodimda.  
Ot choptirgan tog'alarim hayqirar

or talashib,

\* Akalarim kurash tushgan kechalarim yodimda.

Suylar yurgan adirlarda ko'zim oqli, oymomo,  
Ikki daryo orasida so'zim oqli, oymomo.

Onamning ko'zlarini toliqtirar izlarim,  
Eh, kimlarning ko'chasiga yo'llim oqli,  
oymomo.

Yomg'ir yuvgan qirlarimda lolalarim

o'sgan yer,

Qulunlarning izin quchib, dalalarim  
o'sgan yer.

Momolarim urchug'iday chir aylanar bu dunyo,  
Bobolarim duo qilib balolarni to'sgan yer.





## ALLA

*Oybarchin o'g'li Yodgorning beshigini  
tebratib turib shunday alla aytgan ekan.*

Otang ketdi Qalmoqqa,  
Dushman jonin olmoqqa.  
Bolam, kelding dunyoga  
Bor zahmatni tortmoqqa.  
...alla, alla, alla-yo...

Qo'ng'irottdir urug'ing,  
Baland bo'lsin dovrug'ing.  
Bir kun kelib ko'rayin,  
Bolam, sening dovliging.  
...alla, alla, alla-yo...

Ko'rganining shu hayotdir,  
Yurt uchun tonglar ottir!  
O'g'lim, halovatdan kech,  
Senga nomardlik yotdir.  
...alla, alla, alla-yo...

Hayoting tiniq bo'lsin,  
Maqsading ulug' bo'lsin.  
U dunyo-yu, bu dunyo –  
Yuzlaring yorug' bo'lsin.  
...alla, alla, alla-yo...

Onang – munglug' Oybarchin,  
Yuragi parchin-parchin.  
«Haq!» degil...  
Yolg'on to'zgay,  
Kamon tortsa agar Chin!  
...alla, alla, alla-yo...



## ALPOMISH HAQIDA SHE'R



Osmon to'la bulutdir,  
Ko'rinxmaydi quyoshim.  
Yurak, dardni unut bir,  
To'kilmasin ko'zyoshim.

Chohga tushdi yuragim,  
Alpomishga aylandi.  
Ko'nglimdag'i bir g'anim  
Barchinimga uylandi.

Yurak, qismatimiz sho'r,  
Hayot chohga otgandi.  
Muhabbatning ko'zi ko'r,  
Sevdingmi – qilgay bandi.

Endi qayg'u yog'ida  
Dog' bo'ladi dardlarim.  
Oq g'ozning oyog'ida  
Uchib borar xatlarim.

Yetti yilmas, yetmish yil  
Yurak chohda asraldi.  
G'anim ko'ngil, g'arib dil,  
Yurak – yetim, asrandi.

Yurakni qutqargali  
Qorajonlar kelmadi.  
Ultontoz g'olib hali,  
Nohaqliklar o'Imadi.

Bir kun Boychibor kelar,  
Qirq gaz o'sadi yoli.  
Uchqur otday vaqt yelar,  
Chorlar Vatan jamoli...

...Boysunga qaytdi yurak!  
Ultontoz topshirdi jon.





Hasratlar ketdi yiroq,  
Zindonga tushdi hijron.

Yurak ozod! Yurak hur!  
Yurak she'r, kuya moyil.  
Bir qarasang – hofiz ul,  
Bir qarasang – u shoir!



## O'GIT

*Alpomish Qalmoqda zindonda yotib o'g'li Yodgorga  
aytmoqchi bo'lgan gaplarini o'rgimchakka qarab  
so'zlab o'tirardi. Alpomishning ko'nglida tug'ilgan,  
tug'ilgan-u, yurakka tugilgan so'zлari bu turur.*

Nomard urushda bilinadi,  
Yuzma-yuz turishda bilinadi.  
Do'st tut sang nokasni agarda,  
Yuraging bepichoq tilinadi.

Tuningda halovat bo'lmaydi,  
Kuningda barokat bo'lmaydi.  
Nomardga yondoshma, bolam-a,  
U kulsa, iqboling kulmaydi.

Ishonsang o'zingga ishongin,  
Beriyo so'zingga ishongin.  
Nomardga ishonma hech qachon,  
Qulomas, ko'zingga ishongin!

Do'st bilma tasodif hamrohni –  
Yaxshilikni bilmas gumrohni.  
Yodingdan chiqmasin bu so'zim:  
Unutma Vatandek panohni.

Sodiq bo'l hamisha xalqingga,  
Yuraging – sayroqi oqinga.  
Yap-yangi va toza yo'l topgin,  
Qo'shilma kir, quyqa oqimga.



O, shunda chin inson bo'lasan,  
Tilasang ne, ishon, bo'lasan.  
Baxshilar tilida bir kuni  
Eng buyuk bir doston bo'lasan!



## MALIKA

Dilni dilga boyladim,  
«Ishq – hayot!» deb kuyladim.  
Muhabbat deb kuydim-u,  
O'zim uchun kuymadim.

Dilim elanib borar,  
Ma'yus emranib borar.  
Ostonangga, bechora,  
G'amga talanib borar.

Sen bøqmaysan, qoshingga  
Hilol qo'nib turibdi.  
Ne desang ham, qarshingda  
Beklar ko'nib turibdi.

O, aldanma, malikam,  
Avramoqqa dunyo shay:  
Beklar uchun sevgi ham  
Bozordagi matohday.

Yurakni parcha go'sht deb,  
O'laydi bu gumrohlar.  
Ketyapman xayr-xo'sh deb,  
Dilni tilar chaqmoqlar.

Bir kun ulardan bezib,  
Men tomonga qaraysan.  
Ko'nglim taftini sezib,  
Qalbingga o't qalaysan.





Deysan: «Seni poyladim,  
Dilni dilga boyladim.  
Sevgimga joy topolmay,  
Yuragingga joyladim...»



## KO'PKARI

Uloq ketdi, haytovur,  
Chapog'onning qo'lida.  
Bedov solar, urho-ur,  
Or-nomusning yo'lida.

Ko'pkarimi, ko'kbo'ri,  
Qadimdan qolgan o'yin.  
Yigit ori, el ori,  
G'olib chiqmoqlik qiyin.

Illo izlar, chang izlar,  
Sachrar qamchi ovozi.  
Qora ko'zli bo'y qizlar  
Tomosha qilar nozli.

Ayir... ayir, chapog'on,  
Or seniki, qamchi bos.  
Qo'ng'irotlik mehribon  
Yor seniki, qamchi bos.

Ko'pkari – ko'pning ori,  
Ko'pkari – halol kurash.  
Elda chapog'on borki,  
Obro' bo'lmas xomtalash.

Ot bilan chayir tanning  
Joni birikib ketar.  
Er baxti-la Vatanning  
Shoni birikib ketar.



Bedov solar, urho-ur,  
Or-nomusning yo'lida.  
Uloq ketar, haytovur,  
Chapog'onning qo'lida...



## **YODGOR MONOLOGI**

Hayot tashvishlari boshimda bulut,  
Yoshim yettidadir, ruhim yetmishda.  
Bolalik kulgusi bo'lmishdir unut,  
O, baxtli kunlarim qoldi o'tmishda.

Biy bobom suv tashir orqalab meshni,  
Otamni sog'inib ko'r bo'ldi momom.  
Qorajon zax yerga topshirdi to'shni,  
Cho'lda cho'pon bo'ldi Qaldirg'och ammam.

Enamning umidi milt-milt yonadi,  
«Biy bobomning o'g'li!» – uchadi ovoz.  
Aslini unutib eldan tonadi,  
Taxtda savlat to'kib qo'rroq Ultontoz.

Ota-a-aa... ovozlarim ichimga cho'kar,  
Qaylarda men hali ko'rmagan otam.  
Suvliqqa jimgina ko'zyoshin to'kar  
U bir bor egarlab minmagan ot ham.

Dunyo aylanadi: bahor, yoz, kuz, qish...  
Termilib turibman ufqqa, hayhot.  
Baxshi kuylayotir!  
Qaytar Alpomish,  
To elda bor ekan do'mbira va ot!





## O'LAN

Ko'ksimdag'i tosh ekan,  
Ko'zimdag'i tush ekan.  
Vujudimga sig'magan –  
Yurak emas, qush ekan.

O'lan kuydirar dilni,  
Ojizlik tiyar tilni.  
Bo'sh ko'ksim bilan qoldim,  
Yo'qotdim yorug' yo'lni.

Tog'larda tosh qolmagan,  
Ko'zimda yosh qolmagan.  
Sabr ketib bormoqda,  
G'amga bardosh qolmagan.

Sochim oqarmay o'lar,  
Yuzim ajinga to'lar.  
O, yuraksiz vujudim  
Osmonga oshiq bo'lar.

Qiya yo'llar qiyildi,  
Ola to'nlar kiyildi.  
Ko'ksimdag'i ozod qush  
Yurak bo'lib quyildi.

Endi uchish qayda, oh,  
Yurak tushgan manzil – choh.  
Jim ergashib boryapman  
O'z soyamga... Oy guvoh...



## YOMG'IR YOG'AR...

Yomg'ir yog'ar... Qanday yoqimli,  
Gulg'unchan'i ho'plagim kelar.  
Ko'kdan ingan nurli oqimni,  
Yuragimda to'plagim kelar.



Yomg'ir yog'ar... Qanday yoqimli,  
Tuproqlarning hidiga to'ysang.  
Aritadi dildan ohingni,  
Lablarinqda shabnamni tuysang.



Yomg'ir yog'ar... Qanday yoqimli,  
Ko'k qo'lida qamchi bo'lolsam.  
Bu dunyoda men ham chaqinli,  
Guldurakli tomchi bo'lolsam....



BAHOR

Shamollarning sochlariiga osiladi chechaklar,  
Ko'kka qarab bo'y cho'zadi orzu, umid, tilaklar,  
Ko'zin ochib termiladi novdadagi kurtaklar,  
Yurakdagi muhabbatdek shoshib keladi bahor,  
Anhordagi suvlar misol toshib keladi bahor.

Bobolar-u momolarda qismat qishi, kuzi bor,  
Bu kun ular yuzida ham, navbahorning izi bor,  
Go'daklarning ilk so'zida gulbahorning isi bor,  
Adirlarda chechak bo'lib yayrab keladi bahor,  
Jon qushiday ko'ngillarda sayrab keladi bahor.



 Har bahordan, do'stim, bilsang,  
 yuragimning qarzi ko'p,  
 Bor sarvatin poyimizga sochib keladi bahor,  
 Yurakkacha borar yo'lni ochib keladi bahor...



### **ICHIKISH**

Og'rinaman ko'nglim bilan jim,  
 Tashqariga qo'ymas meni qish.  
 Oislarda yig'laydi yum-yum,  
 Meni kutib onam boyaqish.

Ovozlarim qotar bo'g'zimda,  
 Qaltiraydi sovuqdan tanam.  
 Muzlaganday hatto ko'zim-da,  
 Yuragimni isitar onam!

Qaytolmadim, men noshud bola,  
 Borliq yutdi zaif nolamni.  
 Poyezdga bosh urdim: «Bir bora  
 Olib kelgin mening onamni».

Bahor kelar!  
 Gullaydi olam,  
 Nurga to'lib ketar hamma yuz.  
 Qishlog'imda kutadi onam,  
 Kutib turar vokzalda poyezd...



### **MUHABBATNING QO'SHIG'I**

Sevgisidan judo bo'lib yondi yurak,  
 Chidolmadi, eh, baridan tondi yurak,  
 Erib, achchiq ko'zyosh bo'lib tomdi yurak,



Gul ko'nglida bahor emas, kuz yig'laydi,  
Chimmatini yoshi yuvib, qiz yig'laydi.

Qaytib kelmas muhabbatni qo'msaydi zor,  
Bundan ko'ra, yuragini ko'msaydi qor.  
Unutolmas... Unutishga qo'ysaydi yor,  
Gul ko'nglida bahor emas, kuz yig'laydi,  
Chimmatini yoshi yuvib, qiz yig'laydi.

Qo'y, otangning aytganidan qolma, gulim,  
Xudoyimning yozganidan tonma, gulim,  
Meni faqat eslab yurgin, olmagulim,  
Gul ko'nglida bahor emas, kuz yig'laydi,  
Chimmatini yoshi yuvib, qiz yig'laydi.

Taqdirimiz ayro bo'lgan lahza kuysin,  
Yuragimda armon laxcha-laxcha, kuysin,  
Ikkimizni ayirdilar... hijron suysin,  
Gul ko'nglida bahor emas, kuz yig'laydi,  
Chimmatini yoshi yuvib, qiz yig'laydi.



## BIRINCHI SEVGI

Shamollar uxlagan yoz tunlarida,  
Atirgul bargida nafis bir sezgi.  
Tovlanib, o'ynaydi qiz tushlarida,  
Qalbida ko'z ochar birinchi sevgi.

G'arq bo'llar u tunning bag'rige butkul,  
Tush ko'rар orzular og'ushida mast.  
Visolga oshufta. Bilmas hali ul -  
Hijron sharobini xush ko'rар qismat.

Va birdan uyg'onib ketar u ilkis,  
Ko'nglida bir hadik sezadi shu dam.  
Xona burchagiga cho'kkanicha tiz,  
Tonggacha baxt so'rар menga Xudodan...





## QO'SHNI QIZ

Kunni yutar yutoqqancha tun,  
Yulduzlarning ko'zi ochilar.  
Goh men uchun, goh onam uchun  
Baxt izlaydi chaqqon sovchilar.

Shu bahorda bo'lisin deya to'y,  
Har eshikni poylar ovchilar.  
Qo'shnimizning sodda-yu xushro'y,  
Duduq qizin ko'rmas sovchilar.

Unga alla aytar oy,  
Tunga alla aytar oy.  
Bu yolg'onchi hayotga  
Haqiqatni qaytar, oy.

Suvga chiqib kelar qo'shni qiz,  
Yengi yopar nozik bilakni.  
Doimgiday obketar beso'z  
Hijron to'la ikki chelakni.

Unga ertak aytar oy,  
Tunga ertak aytar oy.  
Bu yolg'onchi hayotga  
Muhabbatni qaytar, oy.

Duduqqinam, meni sezgin-da,  
Xizmatingga turibman-ku shay:  
Yuragim limmo-lim... Sevgim-la  
Chelagingni to'ldirib beray!



## OY

Tun – bepoyon, qop-qora saroy,  
Yulduzlar zar bezakdir unga.  
Oy ko'rinas, qayda qoldi oy,  
Kerakmasmi bu sirli tunga?





Oy ko'rinmas – ko'k javohiri,  
 Qayga ketdi u, qayda qoldi?  
 Ko'zlarimdan qochib, oxiri,  
 Yuragimga berkinib oldi...



## BEDORLIK

Uyqu yo'q. Tun. Soat erinchoq,  
 Xotiralar chulg'aydi purg'am.  
 Uziladi ko'hna ko'zmunchoq,  
 Qarsillab sinadi qobirg'am.

Qismating benavo, demakim,  
 Tomirimdan toshgaydir navo.  
 Bitta qobirg'am yo'q, demakkim,  
 Men Odamman, sen – Momo Havo.



## TOMOSHA

Hayrat ila boqar olomon,  
 Tomoshaga bo'lgancha maftun:  
 Turfa o'yin ko'rsatar shu on,  
 Maydonchada bir to'da maymun.

Rangin ishton kiymishdir biri,  
 Taqib olgan hatto bo'yinbog'.  
 Kiborlarcha tashlar ko'z qirin,  
 Sheriklari hushtak chalgan chog'.

Koptok o'ynar littasi tinmay,  
 Boshi bilan urib qo'yadi.  
 Yana biri buyruqqa ko'nmay,  
 Tirjayadi – kulib qo'yadi.





Biri sakrar, bittasi chopar,  
Qay birining belida halqa.  
Xaloyiqning ko'nglini topar,  
Ermak bo'lar zerikkan xalqqa.

O'yin qizir...  
Tomosha so'ngi,  
Chiqib kelar o'rta ga odam.  
Maymunlar jim amriga ko'nib,  
Tor qafasga haydalar shu dam.

Tomoshagoh qarsakka to'lar,  
Hayqiriqdan bo'g'ilar nafas:  
Olqishlarni bir odam olar,  
Maymunlarni yutadi qafas...



## HIJRON

Mening g'amgin she'rimni tinglab,  
Ko'zyosh to'kib qolar deraza.  
O'lim haqda she'r yozsam, ingrab  
Eshik yig'lar – tutadi aza.

Tun quvadi xayollarimni,  
Meni uyqu bag'rige olar.  
Senga borgan oyoqlarimni  
Ko'rpa bo'g'ib, tushovga solar.

Yostiq alla aytadi menga,  
Uyqu kelar tushni ko'tarib.  
Yetganimda tushimda senga,  
Soat uyg'otadi yo'talib.

Uyg'onaman orzu bilan xush,  
Xayolotga singib, suyaman.  
Shamol esib qoladi sarxush,  
Muhabbatning hidin tuyaman.



O'kinaman o'tmishni quchib,  
Yo'qotishlar tegdi-ku jonga.  
Men yuribman shuncha yil uchib,  
·Kelib-kelib qo'ndim hijronga.

Dahlizdag'i eshik azador,  
Hamon yig'lar deraza yum-yum.  
Ko'rpalarning qovog'ida qor,  
Kirlar yotar burchakda uyum.

Ayriliqdan ketaman to'yib,  
Yuragimga orzu ekaman.  
Derazaga hijronni qo'yib,  
Sening ko'chang tomon ketaman...



## MUZLAGAN NAFAS

Qor edim samodan otilgan,  
Yuzingga urildim bexosdan.  
Men o'sha, sochingga osilgan,  
Muzlagan nafasman... nafasman.

Sharfingga ilinib turdim-ku,  
Termuldim yuzingga betoqat.  
Xayriyat! Ko'zingni ko'rdirdim-ku,  
Yurakda uyg'ondi muhabbat!

Orzular – lahzalik, egilib  
Sharfingni silkiding, to'kildim.  
Etiting ostida ezilib,  
Suv bo'ldim... Suv bo'ldim... Suv bo'ldim.

Bug'landim, bulutga aylandim,  
Yomg'irman bu safar, qor emas.  
Ko'zingni ko'rishga shaylandim,  
Ko'zlarining ko'rishga zor emas.





Kiprigingdan yoshdek uzilib,  
Zaminning kaftiga o'tyapman.  
Yoyilib, sochilib, tizilib,  
Sening eticingni kutyapman.

Farishtam, so'nggi bor men tomon  
Kelsayding quvonchga to'lardim.  
Tovoning o'pib men notavon,  
Poyingda jon bergan bo'lardim...



## QORBO'RON

Qor yog'moqda.  
Boshdan oyoq qor,  
Lablaringda titrardi sovuq.  
Men emasman endi xaloskor,  
Qish sen tomon otaverar o'q.

Go'yo quksam erib ketasan,  
Lek yoningda turar edim lol.  
Begonadek o'tib ketasan,  
Unsizdirman, so'rolmayman hol.

Esim qursin, sening ering bor,  
Ulg'aygandir jajji farzanding.  
Vujudimni qoplab oldi qor,  
Faqat yurak ko'nmas – arzanda.

Shu alfovza turdim ancha vaqt,  
Qorbo'ronga berib izmimni.  
Ortginangdan boray desam, Baxt,  
Qor bosibdi darrov izingni...



## MUVOZANAT



Qor ko'ksini o'yib borar iz,  
Sovuq tanda qisiladi ruh.  
Nigoh turib qoladi olis,  
Iz ostidan otiladi «uh».

Teraklarning marjoni quyosh,  
Muallaqda suzadi bulut.  
Sumalakning ko'zlarida yosh,  
Maysalarning qo'shilg'i unut.

Hechsizlikda yo'qolgan kabi,  
Ayoz ichra sirg'anar tovush.  
Go'yo qotil, jon olgan kabi,  
Aybdordek turardi kovush.

Uy to'rida dam olar charchoq,  
Pechkasiz uy ko'kka tikar ko'z.  
Chiroqlar ham lipillar dardnok,  
Gapirolmas muzlab qolgan so'z.

Shamollagan mo'ri yo'talar,  
Yopiladi ohista eshik.  
Milyon yillik kelin haydalar,  
G'ijirlaydi bolasiz beshik.

Chorasizlik kelgandek g'olib,  
Yo'laklarda to'xtab qolar tin.  
Beshigiga bahorni solib,  
Tebratadi haydalgan kelin...



## AFSUN

Qish qorlarin sochib poyimga,  
Qo'llarimdan yulqilar shamol.  
Men bilaman, endi yonimga  
Kelmas sira u sohibjamol.





Men baxtliday yashayman garchi,  
U baxtliday yashaydi-yu, jim –  
Goh tunlari yig'laydi dardchil,  
Goh tunlari kelar o'kragim.

Sog'inchim bir o'zimga ayon,  
Yuragimda – qora to'fonlar.  
O'zanidan toshganda hijron,  
Buziladi po'lat to'g'onlar.

Seni izlab boraman shunda,  
Balki o'zing chiqqaysan peshvoz.  
Oy osmonni qoplagan tunda  
Baxt, visoldan aytajakmiz roz.

To tonggacha ko'zingga cho'kib,  
Qarog'ingda qolgayman muqim.  
Kipriging-la gul libos to'qib,  
Uzatasan... Kiyadi ruhim...

...Bu bir ertak, ha, bu bir afsun,  
Ishonmaydi hech kim so'zimga.  
Yorijonim, koshkiydi bir tun  
Mehmon bo'lsang sen ham ko'zimga...



## TONG SOG'INCHI

Tun. Qahraton. Izillar shamol,  
Derazani chertar bir tovush.  
Ko'kdan ingan samoviy xayol  
Yuragimga o'rashgan xomush.

Chaqmoqlarga to'lar ko'zlarim,  
Yurak tusar yomg'ir hidini.  
G'oyib bo'lgan nodir so'zlarim,  
Izlab yurar oyning izini.



Siqib kelar qorong'i, zulmat,  
Isyon qilar sham-u chiroqlar.  
Men – ziyoga tutingan ulfat,  
Tomirimda nurli titroqlar.

Qaydan topmish quyoshim panoh?!

Ufqdan hech olmasman ko'zni.  
Yuragimdan topgayman nogoh  
Allakimdir yo'qotgan so'zni.

Ruhimda tong kezinib yurar,  
Tiynatimda tiriklik kuyi.  
Ko'zyoshlarim jonimni yuvar –  
Kun ko'yida borar jon kuyib.

She'rdañ o'zga malham topilmas,  
Yog'du sochar tundan tongancha.  
Tirik so'zlar bilan bedor, mast,  
Jon saqlayman najot – tonggacha.

Nihoyat, tong otar. Yorug' tong!  
O'z boshiga orttirib kulfat –  
Chekinadi mag'lub qahraton,  
Yomon tushday to'zg'iysi zulmat...



## QOR

Olamni tun bosdi. Qoraydi borliq,  
Yulduzlar erinib ochdi yuzini.  
Ruhimga vujudim qilmoqda torlik,  
Yurak ko'kragimga urar o'zini.

Bir o'jar istakki – ketmas jonimdan,  
Qorong'ilik ichra nur izlar ko'zim.  
Shu'lalar taralsa deyman qonimda,  
Shamday yonib tursa har bitgan so'zim... 



Xudoyim!

Eshigin ochdimi Samo,  
Farishtalar yerga tushdi tong oldi.  
So'ng yana ko'k sari uchdilar, ammo  
Oppoq liboslari zaminda qoldi...



## **QISH**

Uzun kecha muzlab chiqar qish,  
Ochilmaydi eshik, deraza.  
Ichkariga yo'q biror tirqish,  
Issiq uyda uxlар proza.

Tashqarida sovuqda qolib,  
Yuragida quyoshli niyat –  
Qish qo'lini kaftiga olib,  
Isitadi uyg'oq she'riyat...



## **XOTIRALAR**

Ketib borar qorli yo'lda jum  
Sendan qolgan xotiralarim.

Yiqitadi toyg'inchoq muzlar,  
Nigohlaring kuzatar muztar.

Orzumizning butun joyi yo'q,  
Goh tig' tilgan, goho tekkan o'q.

Armon otlig' qashqir talagan,  
Umidimizni nimtalagan.

Samodagi jami yulduzlar  
Guvoх bo'lgan – uyqusiz ko'zlar.



Ammo sevgi bermas ekan jon,  
Yashar ekan biz-la begumon.



Ishqimizdan bo'lgancha yodgor  
Aro yo'lida xotiralar bor.

Mayli, mendan kechgin butkul voz,  
Faqt sendan bitta iltimos:

Ilinji yo'q, qilmas hech ta'ma,  
Ostonangga borsa, haydama.

Ketib borar qorli yo'lida jim  
Sendan qolgan xotiralarim...



### **YURAGIMDA YASHAYDIGAN QIZ**

- Oymisan, quyoshmisan, yulduzmisan,  
Tongmisan, tunmisan, kunduzmisan,  
Qushmisan, ohumisan, qunduzmisan,  
Yuragimda yashaydigan qiz?

Meni har baloga soladi bir kun,  
Jonimni o'ldirmay oladi bir kun,  
Sevgi-muhabbatdan tonadi bir kun,  
Yuragimda yashaydigan qiz.

U ketar – yolg'izman olamda g'oyat,  
U ketar – qildimmi og'ir jinoyat?!  
Menden malaklarga qilar shikoyat,  
Yuragimda yashaydigan qiz.

Ketar – yurakdag'i tamg'asi nechun?  
Qonimda qoldirgan nag'masi nechun?  
Meni kechir deyman hammasi uchun,  
Yuragimda yashaydigan qiz.





## KEL, YURAGIM

Jonim borar, joning izlab jonsarak,  
Ikkimizga ishqdan boshqa ne kerak?  
Savdoyidek kezib yurar bul yurak,  
Xiyonatning ko'chasidan o'tmaylik,  
Kel, yuragim, muhabbatdan ketmaylik.

Sevgi, seni yo'q dedilar, bor eding,  
G'ururi-ku, yer dedilar, or eding,  
lymoni but insonlarga yor eding,  
Xiyonatning ko'chasidan o'tmaylik,  
Kel, yuragim, muhabbatdan ketmaylik.

Maysalarni silab, hidlab to'y madim,  
Sevib qolib osmonlarga bo'y ladim,  
Erta-yu kech faqat seni o'y ladim,  
Xiyonatning ko'chasidan o'tmaylik,  
Kel, yuragim, muhabbatdan ketmaylik.

Nima bo'lar erta-indin – bilmaymiz,  
Hayronamiz: na yig'lab, na kulgaymiz,  
Yurakda ishq... demakki, biz o'l maymiz,  
Xiyonatning ko'chasidan o'tmaylik,  
Kel, yuragim, muhabbatdan ketmaylik.



## MUHABBAT HAQIDA ODDIY SHE'R

Tun. Ko'l uzra qalqib chiqdi oy,  
Shitirlaydi bezovta qamish.  
Ikki sharpa ishqdan, hoynahoy,  
So'z ochadi. Bu safar xomush.



Goh ko'kdagi oyga termilib,  
 Goh tikilar ko'ljadi oyga.  
 Bir sharpaning boshi egilib,  
 Shivirlaydi: «Qaytaman uyg'a...»

Ular baxtli edi bir zamon,  
 Shu oy guvoh, guvoh ushbu ko'l.  
 Havas bilan boqardi osmon,  
 Huzurlanib eshilardi yo'l.

Endi hijron chalar nog'ora,  
 Qirq kecha to'y berar ayriliq.  
 Arosatda sevgi ovvora,  
 Yo'l izlaydi ortga qayrilib.

Tong otmasa edi shu safar,  
 Tugamasa oyning shu'lasi.  
 Quchar edi muhabbat zafar,  
 Kuylanardi ishq ashulasi.

Afsuski, tong bo'zardi. Quyosh  
 Tun ko'ksini tilib chok etdi.  
 Ikki sharpa – ikki tomchi yosh  
 To'lqinlarga qo'shilib ketdi.

Bir chayqaldi bag'ri to'lgan ko'l,  
 Bir titradi suvda siniq oy.  
 Visol sari ochilganday yo'l,  
 Baxt qasridan tekkan kabi joy...

Tag'in sevgi qildi tantana,  
 G'olib bo'ldi mag'rur muhabbat.  
 Ikki sharpa sohilda yana  
 To tonggacha quradi suhbat...



## **YOLG'IZLIK**

Bedor tunni yolg'iz kezaman,  
Yetaklayman oyni ortimdan.  
G'amni ust-bosh kabi yechaman,  
Sharf to'qiyman qishga dardimdan.

Olislayman hayotdan biroz,  
Fuqarongman qabul qil, xayol.  
Samovotdan otilar ovoz:  
- Səni kutmas sen sevgan ayol.

Hijron aro tentiyman uzoq,  
Tushlarimdan izlayman yechim,  
Ta'biri yo'q ro'yolar tuzoq,  
Fol ocholmas baxtimdan hech kim.

Xiralashar iqbol yulduzi,  
Munajjimlar ko'zidan yiroq.  
Mayli, oshiq qolsin yo'lisz-u,  
Yo'qolmasin manzili biroq.

Manzil aniq. Ko'ksingga qara,  
Borish mumkin unga yo'laksiz.  
Buzilmasin faqat bu qal'a,  
Yashab bo'lmas, axir, yuraksiz!

**Yashab bo'lmas, axir, yuraksiz!!**



## **OSHIQ EDIM**

Yor vasliga yetolmagan oshiq edim,  
Qo'l siltab ham ketolmagan oshiq edim.  
Ko'ngli bilan kuyib-kuyib ado bo'lgan,  
Yor to'yiga o'tolmagan oshiq edim.

Bugun ko'kdan yomg'ir emas, yosh oqadi,  
O, ko'ksimga mushdekkina tosh botadi.  
Yor-yorlarning sadolari buncha g'amgin,  
Yolg'izlikning yoronlari qosh qoqadi.



Tun bag'rini tilib-tilib yeladi kuy,  
Kimni baxtli, kimni bebaxt qiladi to'y.  
Yuragingni xotiralar tirnab tolmas,  
Qo'ygin, meni bir lahza ham eslama, qo'y!

Endi senga yetti emas, yetmish yotman,  
Yalla edim – avji achchiq faryod, dodman.  
Ko'pkaridan uloq bilan chiqqan, ammo  
Yarim yo'lida munkib ketgan mag'lub otman.

O'z holimdan so'z aytaman ozorlanib,  
Ozorlanib, nomus qilib, oh, orlanib.  
Hasratimni ko'msam hamki dil qa'riga,  
Iztirobim sizib chiqqay goh zorlanib:

«Yor vasliga yetolmagan oshiq edim,  
Qo'l siltab ham ketolmagan oshiq edim.  
Ko'ngli bilan kuyib-kuyib ado bo'lgan,  
Yor to'yiga o'tolmagan oshiq edim...»



## ISHQ O'ZINGSAN

Ishq o'zingsan. Tushmi yo o'ngim,  
Ixtiyorsiz jo'nar oyoqlar.  
Syratingni chizadi ko'nglim,  
Muhabbatdan olib bo'yoqlar.

O'rtamizda ayriliq gullar,  
Bepisandman hijron-u dardga.





Qanot bo'lib uchadi yo'llar,  
Eltish uchun bizni murodga.

Yolg'on emas bu dunyosi – chin,  
Orzumizni qoplamas ro'yo.  
Sevgimizning borligi uchun,  
Qarimaydi navqiron dunyo.

Mangu yoshmiz.  
Sodiq qolsak gar,  
Chalg'itmasa bizni xiyonat –  
Sevgimizni qoplamasa gard,  
Bu dunyoda qo'pmas qiyomat...



## RAQS

Tun ko'ksida o'ynoqlar shamol,  
Gullar nurdan to'qidi qo'shiq.  
Kengliklarda kezinib xayol,  
Yulduzlarga bo'ladi oshiq.

Gullar qo'shiq aytadi rangin,  
Turfa tusda ochilgan nota.  
Shabbodalar o'ynaydi gangib,  
Maysalarning kuyi bexato.

Uylar vazmin,  
Go'yo tosh qotgan,  
Yuragida ne og'ir o'ylar.  
Oyoqlari zaminga botgan,  
Tushlarida o'ynaydi uylar...



## MENI YASHAB O'TAR BOLALIK



Osmonlarga tikilib tunda,  
Yulduzlardan ko'ngil so'radim.  
Shudring tushgan bir sohir tongda  
Men shaharga qarab jo'nadim.

Mana, shahar!  
Ko'zlarim quvnar,  
Uylar baland, baland daraxtlar...  
Umrим bo'yи ortimdan quvlar  
Qishlog'imdan ergashgan baxtlar.

Faqat so'zlar kirar tushimga,  
She'r bo'ladi chang yo'l, bedazor.  
Yuragimning sayroq qushi-da  
Kengliklarga talpinadi zor.

Ha, qiyofam o'zgargani rost,  
Qarashlarim o'zgardi ancha.  
Ko'ngil deydi: - Bor, o'zingni os,  
Aro yo'lida sayoq yurguncha.

Bu yerlarda ko'p ekan xatar,  
Quyosh, o'zing qilgin og'alik.  
Qishlog'imga yetgunga qadar  
Meni yashab o'tar bolalik...



## SOAT MILLARI

Asrlar muqaddam bir oqil odam  
Soatni yaratib shaharga osdi.  
Shu lahzadan boshlab hisobli olam  
Soat millarining ortidan shoshdi.





Kunlar soatlarga bo'linib oldi,  
Soatlar sochildi daqiqalarga.  
Bo'g'zimga bir lahza tiqilib qoldi,  
Shu lahza yo'l ochgay haqiqatlarga...

Vaqt nisbiy. Nisbiydir soat millari,  
Garchi ular betin yugurib tolmas:  
Yashalmagan oylar, ruhsiz yillaring  
Tirik soniyaga teng kela olmas!



## MANGU HAYOT

Men mangu yashashga qilindim mahkum,  
Endi o'limimni yurmayman kutib.  
Endi ko'zlarimni qoplamaydi qum,  
Meni yer bus-butun ketmaydi yutib.

Vaqtlar bo'yсинади нигоҳларимга,  
Quyosh ко'зларимнинг о'tida kuyar.  
Shamol haydar ketar gunohlarimni,  
Nurga aylanadi hattoki kuya.

Suvlar teskariga oqar, xohlasam,  
Tog'lar suzib yurar bahri ummonda.  
Yulduzlar to'kilar yerga, yo'qlasam,  
Bulutlar qaynaydi qora qumg'onda.

Ha, mangu yashayman,  
Yo'q endi o'lim,  
Ruhimga qo'shilib yosharadi tan.  
Axir, ko'p yasha, deb alqaydi elim,  
Axir, obi hayot berar bu Vatan!





## MUNDARIJA

Yodimda.....	3	Qorbo'ron.....	18
Alla.....	4	Muvozanat.....	19
Alpomish haqida she'r..	5	Afsun.....	19
O'git.....	6	Tong sog'inchi.....	20
Malika.....	7	Qor.....	21
Ko'pkari.....	8	Qish.....	22
Yodgor monologi.....	9	Xotiralar.....	22
O'lan.....	10	Yuragimda yashaydigan qiz.....	23
Yomg'ir yog'ar.....	10	Kel, yuragim.....	24
Bahor.....	11	Muhabbat haqida oddiy she'r.....	24
Ichikish.....	12	Yolg'izlik.....	26
Muhabbatning qo'shig'i.....	12	Oshiq edim.....	26
Birinchi sevgi.....	13	Ishq o'zingsan.....	27
Qo'shni qiz.....	14	Raqs.....	28
Oy.....	14	Meni yashab o'tar bolalik.....	29
Bedorlik.....	15	Soat millari.....	30
Tomosha.....	15	Mangu hayot.....	30
Hijron.....	16		
Muzlagan nafas.....	17		





**Adabiy-badiiy nashr**

---

**BIRINCHI KITOBIM**

---

**Elyor MUROD**

**TIRIKLIK QO'SHIG'I**

**She'rlar**



Muharrir **Davron Ulug'murodov**

Badiiy muharrir **Nasiba Adilxanova**

Texnik muharrir **Yelena Tolochko**

Musahhih **Dilafro'z Choriyeva**

Matn teruvchi **Gulchehra Azizova**

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2017-yil  
15-iyunda ruxsat etildi. Bichimi 70×90<sup>1</sup>/<sub>32</sub>. Ofset qog'ozi.  
Pragmatica garniturasi. Shartli bosma tabog'i 1,17. Nashr  
tabog'i 1,22. Adadi 7000 nusxa. Shartnoma № 85–2017.  
Buyurtma № 217-17<sup>A</sup>.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Cho'lpon  
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100011, Toshkent,  
Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-10-45. Faks: (371) 244-58-55.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining «O'qituvchi»  
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. 100206, Toshkent,  
Yunusobod dahasi, Yangi shahar, 1.

